

## KASALLIKLARNING INSON PSIXIKASIGA TA'SIRI

Olimov Saydullo<sup>1</sup>

*Qo'qon Universiteti*

### KEYWORDS

onkologiya, profilaktika,  
davolash, hayot tarsi, patsient,  
munosabat.

### ABSTRACT

Bugun inson salomatligini saqlash muhim vazifalardan biriga sanalmoqda. Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarni davolashning eng samarali yollarini topish va amaliyotda qo'llash zamonaviy gumanistlarning bosh g'oyalaridan hisoblanadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15839296](https://doi.org/10.5281/zenodo.15839296)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

### KIRISH

Bugun butun dunyo miqyosida insonlar yer yuzida ilk hayot kechirisni boshlashidan shu kungacha bo'lgan davrda yani filogenezida turlicha kasalliklar bilan doimiy kurash bo'lib kelganligini eng qadimgi tarixiy manbalar qoyatosh rasmlarida ham ko'rishimiz mumkin. Lekin yaqin kunlarga inson tanasi kasallikka chalinganida tanani davolash insonni tuzalishiga yuz foiz yetarli deyilib kelingan. Lekin kasallikning inson psixologiyasiga ta'siriga ilmiy e'tibor berilmagan. Bugun insoniyatni eng havotirga solgan onkologik va boshqa og'ir kasalliklarni ijobiy tomonga ozgarishiga ham tuzalishga bo'lgan ishonch, umid, iroda, sabrning va kelajakdagi orzular muhim axamiyatga egadir.

Mamlakatimizda ham bu muammoni hal etishga qaratilgan ishlar davlat siyosati darajasida ko'rib chiqilmoqda. Davlatimiz rahbari Prezidentimiz Mirziyoyev SH.M tomonidan muammoni zamonaviy yechimlarini topishga xarakterlarni belgilanganligini kuzatilmoqda. PQ-183-son 21.05.2024. "Onkologik, gemotologik va immunologic kasalliklarga chalingan bolalarni tibbiy reabilitatsiya qilishni tashkillash tartibini tasdiqlash" qarori reabilitatsiyani tartiblashtirdi[2].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugun inson va kasalliklar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar o'rtasidagi kurash

har qachongidan ham yangi fazaga o'tgan. Zamonaviy tibbiyot faninig "sog'lomlashtirish" paradigmasini sekin asta: kasallikni davolashdan uning oldini olish ya'ni profilaktikasi, salomatlikni saqlash haqidagi tushunchalar bilan qurollantirish va salomatlikni mustaxkamlash psixofiziologiyasiga qaratilmoqda. O'zini salomatligini saqlash madaniyati, murakkab tuzilma sifatida "salomatlik" fenomeni tabiati yurtimiz psixologiyasi zamonaviy nazariyalar yetarli ishlab chiqilmaganligini tan olish kerak. Reabilitatsiya ishlarini olib borishda ham kompleks yondashuvni taqazo qiladi, afsuski kompleks yondashuv bosqich va unda davolashning psixologik jihatlari juda kam e'tibor berilishi kuzatamiz. Buyuk Imom Buxoriy hazratlarining «Al-Jome' as- Sahih» asari «Barcha ezgu amallar niyatga bog'liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi» degan hadis bilan boshlanishida albatta juda chuqur ma'no bor[1.b-6].

Bu yo'nalishda olimlar tomonidan yondashuvlar "shaxs" nazariyalari "sogliqni saqlash" insonni butun umir yo'li davomida davom etib borishidadir. Yashash sifati onkologik kasalliklarni davolash va reabilitatsiyasi effektivligini belgilovchi muhim kriteriyalardan biri sifatida (Semiglazova T.Yu., Kondrateva K.O, Chulkova V.A, Kotova Z.S, Demin E.V, Bernatskiy A.S, Semiglazova V.V, Donskiy R.B, Karitskiy A.P, Sherbakov A.M, Belyayev A.M) takidlaydilar. Jahonda psixoonkologik rivojlanish tarixini (Karavayeva T.A., Vasilyeva A. V., Lukoshkina E.P) tadqiqot qildilar. Onkologik kasallar bilan psixologik tadqiqotlar olib borishning etik jixatlarini o'rganish bilan Chulkova V.A izlanishlar olib bordi. Oshqozon-ichak raki bilan kasallangan bemorlarda psixologik tadqiqotlar Pesterova E.V izlanishlari olib bordi. Ayollar ko'krak bezi raki bilan kasallangan bemorlar Chulkova V.A izlanishlar olib bordilar[4].

Onkologik kasalliklarni qo'zg'atuvchi faktorlarga to'xtab o'tish kerak. Olimlar olib borgan izlanishlarda asosi factor sifatida atrof-muhit omili keltirib o'tilmoqda. Ushbu faktorni asosiy factor ekanligi tog'lik hududda va zavod fabrikalar soni ko'p va ular ishlab chiqarish mobaynida atmosferaga chiqarayotgan zararli kimyoviy moddalarning ko'p hududda yashovchi axoli o'rtasidagi qiyosiy taxlillar yaqqol ko'rinadi. Keyingi factor sifatida genetic omilni kiritishimiz mumkin. Har bir avlod o'z ajdodlaridan meros qilib olgan xususiyatlar ta'sirida yashab faoliyat yuritadi. Dunyoqarash ham insonni jismidagi turli kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan anareksiya kasaliga chalingan bemorlar o'z tanasiga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'ladilar.

Ayollar ko'krak bezi raki bilan chalingan bemorlarda onkologik kasallik kutilmaganda boshlanib qolmaydi. Dastlab limfa tugunlarida o'zgarishlar yuzaga keladi. Manashu davr davolashning eng normal davri ekanligi ko'pchilik bexabar. Bu davr ayollarda kechish jarayoni tibbiyotda "mastapatiy" nomidagi atama bilan qayd etiladi.

Karl va Stefani Saymontonlar Dallas markazi onkologik tadqiqotlar va konsultatsiya markazi rahbarlari. Karl radioonkolog, vrach, rak kasalliklarini davolovchi shifokor. Stefani psixolog. Karl qiziqib qoladi, u xali Oregona universiteti qoshidagi tibbiyot kollejida o'qib yurgan vaqtlarida. O'shanda u diqqatini qaratdi. Ba'zan mijozlar yashashni xohlashlarini va o'zlarini yashash og'irdek tutishlarini kuzatdi. O'pka kasaliga chalingan bemorlar chekishni tashlamasligini, ba'zi jigar raki mavjudlar ichishni davom

ettirishlarini kuzatadi[7].

Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarni ko'pchilik davolash faqat tibbiyot amaliyot va medikoterapiya sifatida tasavvur qiladilar. Aka-uka Saymantonlarning tadqiqotlaridan shuni kuzatish mumkinki insonni xulq-atvori turmush tarzi kasalliklarni paydo bo'lishiga determinant sifatida paydo bo'lar ekan. Davolash ya'ni reabilitatsiya masalasi tibbiy muolajalar bilan parallel holatda psixologik reabilitatsiya ishlarini olib borish kerak. Onkologik kasallikka chalingan bemorlarning reabilitatsiyasida organizimning jismoniy imkoniyatlarini tiklash masalasi turadi. Bunda istemol qilinadigan maxsulotlarning sifatiga e'tibor muhudir.

Onkologik kasalliklarning asosiy reabilitatsiya qirq yillar avval M.M. Kabanov fikricha: davolovchi vrach va patsiyent o'rtasida partnyor aloqalarni o'rnatish; turlicha hamjixatlik, patsiyentning hayoti va faoliyati chora-tadbirlar ishlab chiqish, biologic va psixosotsial metodlar ta'sirini tahlil qilish, patsiyent funksional va psixoemotsional xolati dinamikasini bosqichma-bosqich amalga oshirish maslaxat beradi[4.b-10].

"Hayot sifati" konsepsiyasi tibbiy interpretatsiyasi ilk bora AQSHda Kolumbiy universiteti professori Kornovskiy D.A 1947 yilda chop etilgan "Rak vaqtida kimyoterapiyaning klinik baxosi" maqolasida kimyoterapiya organizimga ta'siri va jismoniy aspektida tiklanishga hayot sifati o'rganish mavzu predmeti sifatida belgilaydi. Hayot sifati konsepsiyasi 1980 yillarda amerikalik olimlar tadqiqotlarida tibbiyotda biopsixologik model maqsadi kasallikning psixosotsial aspekti ekanligi takidlanadi. Hayot sifati konsepsiyasi anchagina aniq kalit factor sifatida vrach va bemor munosabatlarida keng tarqalgan qadimgi Gippokratning ta'rifi "davolash kerak kasallikni emas, balki bemorni" [4.b-12].

Abu Ali Ibn Sino ham kasallikni o'rganish va davolash bilan shug'ullanmasdan balki kasalning hayot tarzini ham o'rganishni tavsiya qiladi. U sog'lom inson hayot tarzini va bemor inson hayot tarzini o'rganib ularni xar birini alohida alohida o'rganib chiqadi[3].

## **XULOSA**

Dastlab o'z kasali xaqida ma'lumot har qanday insonga jiddiy ta'sir etish ehtimoli yuqori. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga asosan bildirilgan fikrlarini o'rganib chiqish natijasida bemorning o'z kasalligiga nisbatan munosabati bemorda kasallikka qarshi kurashib g'olib bo'lish yoki kasallikka mag'lub bo'lish masalasi yotadi. Pozitiv fikrlash inson immunitetini oshirishda roli katta axamiyatga ega. Bemorda o'zining sog'yib ketishiga bo'lgan ishonchning, hali hal etilmagan muammolarni yechimini topmagunicha kurashda davom etish istagi kasallik ustidan g'alaba qozonishga undovchi kuch motivatsiya ijobiy ta'sir etadi. Onkologik kasallikka chalingan insonda kasallikdan qo'rqinch paydo bo'ladi. Bu qo'rqinchni yengishning usullari psixologik korreksion amaliyotda psixolog yordamida amalga oshiriladi. Muammoni psixologik tomoniga diqqat e'tibor eng so'ngi bosqichda paydo bo'ladi. Yana vaqtning cho'zilib ketishi ham irodaning pastlashiga olib keladi. Ba'zi insonlar yolg'iz qolganida kasallikka nisbatan sezgirliigi ortib ketadi, voxima xolatiga tushib qoladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Shavkat Mirziyoyev Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi.3. Toshkent "O'zbekiston" 2019.
2. PQ-183-son 21.05.2024. "Onkologik, gemotologik va immunologic kasalliklarga chalingan bolalarni tibbiy reabilitatsiya qilishni tashkillash tartibini tasdiqlash"
3. Васильева О. С., Филатов Ф.Р. Психология здоровья человека: эталоны, представления, установки: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр "Академия", 2001. — 352 с
4. Онкопсихология для врачей-онкологов и медицинских психологов. Руководство // А.М. Беляев и коллектив авторов / Ред. А.М. Беляев, В.А.Чулкова, Т.Ю. Семиглазова, М.В. Рогачев. – СПб: Любавич, 2017. – 352 с. ISBN 978-5-9908557-4-8
5. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O 'RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 245-248.
6. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." *Analysis of International Sciences* 2.2 (2024): 51-57.
7. Саймонтон К., Саймонтон С. Психотерапия рака. — СПб: Питер, 2001. — 288 с. — (Серия «Современная медицина»). ISBN 5-272-00329-2
8. Soxobjonovich, O. S. (2024). FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLARNI BOSHQARISH VA BIRINCHI PSIXOLOGIK YORDAM. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 111-115.
9. Soxobjonovich, O. S. (2024). BOSHQARUV SOXASI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI. *Kokand University Research Base*, 343-347.